



## Faktlar varaqasi - Nyu York shtatidagi Bitirish mezonlari sharhi Nyu York shtati Vasiylar kengashi 2022-yil qish Mintaqaviy yig'ilishlar

2019-yil iyul oyida o'sha paytdagi kansler Betti A. Roza va Vasiylar kengashi shtatdagi o'rta maktabni bitirish bo'yicha mezonlarni ko'rib chiqish va Nyu York shtatida diplom olish nimani anglatishini o'rganish uchun "Moviy tasma" komissiyasini tuzishlarini e'lon qilishdi.

Komissiya Nyu York shtatidagi barcha talabalar uchun ta'lim jarayonining mukammalligi va tenglikni ta'minlash uchun shtat diplomi nimani anglatishi kerakligini tekshiradi. Komissiya boshqa o'rganish va muvaffaqiyat mezonlarini qo'shish Nyu-Yorkdagi turli xil talabalar populyatsiyasiga ular bilgan narsalarning ko'rsatgichi sifatida yaxshiroq xizmat qilishi mumkinmi yoki yo'qligini, ular kollej, karyera va fuqarolik ishtirokiiga tayyor yoki tayyor emasligini ko'rib chiqadi.

### Mintaqaviy yig'ilishlar "Moviy tasma" komissiyasining ishi haqida xabardor qilishga yordam beradi

"Moviy tasma" komissiyasining ishi haqida xabardor qilish uchun Vakillar kengashi va Davlat ta'lim departamenti ko'plab hamkorlar, jumladan, ota-onalar, o'qituvchilar, ma'murlar, maktabni qo'llab-quvvatlash xodimlari, oliy ta'lim vakillari, biznes hamjamiyatlari va keng jamoatchilikning fikrlarini to'plamoqda. Ushbu fikr-mulohazalarni yig'ish uchun shtat bo'ylab mintaqaviy yig'ilishlar o'tkazilmoqda. 2020-yil qishgi mavsumda ko'plab uchrashuvlar o'tkazilgan bo'lsa-da, ushbu mintaqaviy yig'ilishlar 2021-yil dekabr oyida davom etadi.

Har bir mintaqaviy yig'ilishda ishtirokchilar muhokama qilish uchun kichikroq guruhlariga bo'linish va Boshqarmaga beshta yo'naltiruvchi savollar bo'yicha fikr-mulohaza bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

1. Biz barcha talabalar bitirgunga qadar nimalarni bilishi va nimalar qila olishini xohlaymiz?
2. Biz barcha talabalar qanday qilib o'zlarining madaniyatlari, tillari va tajribalaridan foydalangan holda bunday bilim va ko'nikmalarni namoyish etishlarini xohlaymiz?
3. Barcha talabalarga muvaffaqiyatga erishish uchun imkoniyatlar yaratib bergan holda ular o'rta maktabni tamomlash ko'rsatkichi ekanligiga ishonch hosil qilish uchun o'rganish va muvaffaqiyatni (yuqoridagi №2 javoblarga tegishli) qanday o'lchaysiz?
4. Muvaffaqiyat mezonlari nogironligi bo'lgan talabalar va ingliz tilini o'rganuvchilar kabi maxsus guruhlarimizning ko'nikmalari va bilimlarini qanday to'g'ri aks ettirishi mumkin?
5. Qaysi kurs talablari yoki imtihonlari barcha talabalar kollej, karyera va fuqarolik ishtirokka tayyor bo'lishini ta'minlaydi?

*"Biz har bir bolaga o'z ta'limini davom ettirish, qoniqtiruvchi karyera topish va o'z hamjamiyatining faol a'zosi bo'lishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash imkonini beradigan ta'lim imkoniyatlarini taqdim etishimiz kerak. Kengash va men Nyu York shtatidagi har bir talaba uchun mukammallikni ta'minlashga intilamiz. Ta'limdagi "bitta o'lcham barchaga to'g'ri keladi" yondashuvi ko'pchilik talabalarimizga to'g'ri kelmaydi va biz barcha talabalarga muvaffaqiyatga erishish uchun teng yo'llarni taqdim etish uchun tizimni o'zgartirishimiz kerak". - Kansler Lester V. Yang, Jr.*



Vasiylar kengashi idorasi  
89 Washington Avenyusi, 110-xona  
Albani, NY 12234  
Telefon: (518) 474-5889  
Faks: (518) 486-2405  
E-pochta: RegentsOffice@nysed.gov



New York State  
EDUCATION DEPARTMENT  
Knowledge > Skill > Opportunity

# NY shtatida bitirish mezonlarini sharhi uchun qoralama vaqt jadvali

<b>I bosqich: Ma'lumot to'plash va o'rganish</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>• <b>2019-yil noyabridan 2020-yil martigacha</b><ul style="list-style-type: none"><li>◦ Boshqa shtatlardagi tadqiqot va amaliyotlarga oid adabiyotlar ko'rib chiqish.</li><li>◦ Shtat bo'ylab fikr-mulohazalarni yig'ish uchun 2020-yilning yanvar-mart oylarida mintaqaviy uchrashuvlar o'tkazildi.</li></ul></li><li>• <b>2020-yil mart:</b> COVID-19 pandemiyasi sababli barcha mintaqaviy uchrashuvlar bekor qilindi.</li><li>• <b>2021-yil kuz:</b> Mintaqaviy uchrashuvlar virtual formatda davom etadi.</li><li>• <b>2022-yil yoz:</b> Mintaqaviy yig'ilish bo'yicha fikr-mulohazalar tuziladi.</li><li>• <b>2022-yil kuz:</b> "Moviy tasma" komissiyasi (BRC) va yig'ilishlar jadvali qoralamasi tuziladi.</li></ul>
<b>II bosqich: "Moviy tasma" komissiyasi"</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>• <b>2022-yil noyabr:</b> Komissiyaning birinchi yig'ilishi – BRC yig'iladi va o'zining ish doirasini belgilaydi.</li><li>• <b>2022-yil dekabr:</b> Ustuvor yo'nalishlarni va oldinga siljish uchun asoslarni aniqlash uchun "Moviy tasma" komissiyasining ikkinchi yig'ilishi Ustuvor sohalar bo'yicha kichik guruhlarini tashkil etish.</li><li>• <b>2023-yil yanvar – 2023-yil aprel</b> Kichik guruhlar uchrashadi.</li><li>• <b>2023-yil may – 2023-yil iyul</b> Kichik guruhlar taklif qilingan tavsiyalarni ishlab chiqadi.</li><li>• <b>2023-yil kuz – 2024-yil qish</b> Kichik guruhlar BRCga tavsiyalarni taqdim etadi.</li><li>• <b>2024-yil qish – 2024-yil bahor</b> BRC tavsiyalarni yakunlaydi va hisobot tayyorlaydi.</li></ul>
<b>III bosqich: Vakillar muhokamasi</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>• <b>2024-yil bahor/yoz</b> "Moviy tasma" komissiyasining yakuniy hisoboti ko'rib chiqish uchun Vakillar kengashiga taqdim etiladi.</li></ul>

*"Aniqroq aytaman: bu harakat shunchaki bitirish standartlarimizni o'zgartirish emas. Bu bolalarga bitiruvga tayyor ekanliklarini, mazmunli diplomga ega ekanliklarini namoyish qilishlari uchun turli xil yo'llar - bir xil darajada qat'iylikni ta'minlash haqida. Bu o'quvchilar o'rganayotgan bilimlari ularga mos va jamiyat uchun foydali bo'lishini ta'minlash haqida. Bu o'qituvchilar, ota-onalar va o'quvchilar birgalikda ta'lim berish va ta'limolishni yaxshilash uchun ishlaydigan maktab hamjamiyatlarini yaratish va munosabatlarni o'rnatish haqida".*

*- Komissar Betti A. Roza*

## Xabardor bo'ling

Shaffof va mazmunli ma'lumot to'plash jarayonini ta'minlash uchun NYSED butun jarayon davomida yangilanishlarni taqdim etadigan Bitirish mezonlari veb-saytini yaratdi. Saytdan siz e-pochta orqali jamoatchilik fikrlarini yuborishingiz va e-pochta xabarlarini olish uchun obuna bo'lishingiz mumkin.

- **Veb-sayt:** [nysed.gov/grad-measures](https://nysed.gov/grad-measures)
- Jamoatchilik fikrlarini yuborish uchun e-pochta: [GradMeasures@nysed.gov](mailto:GradMeasures@nysed.gov)
- Heshteg: #NYSGradMeasures Twitter, Facebook va LinkedIn tarmoqlarida.

Yangilangan sana: 11/12/21



Vasiylar kengashi idorasi  
89 Washington Avenyusi, 110-xona  
Albani, NY 12234  
Telefon: (518) 474-5889  
Faks: (518) 486-2405  
E-pochta: [RegentsOffice@nysed.gov](mailto:RegentsOffice@nysed.gov)



New York State  
EDUCATION DEPARTMENT  
Knowledge > Skill > Opportunity